

## O‘ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDA SO‘Z YASALISHINING O‘XSHASH VA FARQLI NUQTALARI

**Qudratova Marjona Akbarjon qizi**  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek, ingliz va koreys tillarida so‘z yasashining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan. So‘z yasashi jarayonida ushbu tillarda qanday usullar qo‘llanilishi, morfologik va semantik o‘ziga xosliklari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot davomida uch tilning so‘z yasash modellari qiyosiy tahlil qilinib, har bir til uchun xos bo‘lgan vositalar va tamoyillar ochib berilgan. Maqola natijalari tilshunoslikda qiyosiy tahlil usulidan foydalanib, turli tillarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** so‘z yasashi, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, ingliz tili, koreys tili, morfologiya, semantika.

So‘z yasashiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘zbek tilida asosan ikki xil usul vositasida yangi so‘z yasash mumkin. Bular morfologik va sintaktik usul. Ba’zi manbalarda ular affiksasiya va kompozitsiya usullari deb ham yuritiladi. So‘z asosiga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali so‘z yasalsa, bunga morfologik usul deyiladi. Masalan: bilim so‘ziga so‘z yasovchi -li qo‘shimchasi qo‘shilsa, bilimli so‘zi; kitob so‘ziga -xon qo‘shimchasini qo‘shsak, kitobxon so‘zi; ish asosiga fe’l yasovchi -la qo‘shimchasi qo‘shilganda, ishla fe’li hosil bo‘lishi kabi. O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar asosan o‘zakdan keyin qo‘shiladi, ba’zi hollarda, ayniqsa sifat yasashda so‘z oldidan qo‘shilish holatlari ham mavjud. Ikki yoki undan ortiq so‘zlarning birikuvidan yangi so‘z yasashiga sintaktik usul deyiladi. Bu usul yordamida qo‘shma yoki juft so‘zlar hosil qilinadi. Misol uchun asal so‘ziga ari so‘zini qo‘shib asalari so‘zi; rahm so‘ziga dil so‘zini qo‘shib rahmdil so‘zi; gul so‘ziga dasta so‘zini qo‘shib guldasta so‘zlarini hosil qilish mumkin.

Yuqoridagi usullardan so‘z yasashida keng foydalanilsada, o‘zbek tilida yana so‘z yasashning abbrevatsiya, fonetik, semantik, takrorlash usullari ham mavjud. Bir butun holda qo‘llaniladigan birikmalarning qismlarini turli yo‘l bilan qisqartirib yangi so‘z hosil qilishga abbrevatsiya usuli deyiladi. BMT, MDH, ToshMI kabilar bunga misol bo‘la oladi. Fonetik o‘zgarish orqali yangi so‘z yasashiga fonetik usul deyiladi. Masalan: yozma so‘zida urg‘u “o” tovushiga tushsa bu fe’l, agar “a” tovushiga tushsa sifatni; suzma so‘zida urg‘u “u” tovushiga tushsa fe’l, “a”ga tushsa otni anglatishi singari. Semantik usulda so‘z ma’nosida o‘zgarish ro‘y beradi. Misol tariqasida ko‘k so‘zini oladigan bo‘lsak, bu so‘z ham rang ma’nosida, ham osmon ma’nosida qo‘llaniladi. Takrorlash usulida o‘z nomidan anglashilgani kabi so‘zni takrorlash vositasida yangi so‘z yasaladi. Masalan: xola-xola (o‘yin nomi), manman (sifat), yo‘l-yo‘l (rang) kabi.

Ingliz tilida so‘z yasashi (word formation)ga nazar tashlasak, bu asosan to‘rt xil usul orqali amalga oshiriladi. Bular: so‘z asosiga old qo‘shimcha qo‘shish

(prefix), orqa qo‘shimcha qo‘shish (suffix), bir so‘z turkumidan boshqa so‘z turkumiga o‘tish (conversion) va qo‘shma so‘z yaratish (compounding) usuli. Old qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilishga misol qilib tidy (toza)-untidy (kir), respect (hurmat)-disrespect (behurmat), comfort (qulaylik)-discomfort (noqulaylik) kabilarni aytishimiz mumkin. Orqa qo‘shimchalar vositasida hosil qilingan so‘zlarga misol tariqasida write (yozmoq)-writer (yozuvchi), move (harakat qilmoq)-movement (harakat), brave (mard)-bravery (mardlik), quick (tez)-quickly (tezda) va boshqalarni keltirishimiz mumkin. So‘z turkumini o‘zgartirish usuli gapning mazmuni orqali amalga oshiriladi. Masalan: “rich” so‘zi sifat bo‘lib, “boy” degan ma‘noni anglatadi, “poor” so‘zi ham sifat bo‘lib “kambag‘al” degan ma‘noni beradi. Ammo “The rich should help the poor” gapiga qarasak, mazkur gapda “rich” va “poor” sifatlari otga aylanganligining guvohi bo‘lamiz, ya‘ni “Boy kambag‘alga yordam berishi kerak”. Qo‘shma so‘z yaratish usulida ikki so‘zni bir-biriga qo‘shish orqali yangi so‘z yasaladi. Misol uchun, “black (qora)” so‘ziga “board (doska)” so‘zini qo‘shib “blackboard (sinf doskasi)” so‘zini; “sun (quyosh)” so‘ziga “rise (ko‘tarilmoq)” so‘zini qo‘shish yordamida “sunrise (quyosh chiqishi)” so‘zini; “master (usta)” so‘ziga “piece (bo‘lak)” so‘zini qo‘shish vositasida “masterpiece (durdon)” so‘zlarini hosil qilish mumkin.

Koreys tilida so‘z yasash usuli “형성 방법” deb atalib uning asosiy oltita turi mavjud. Bular: 합성어 (qo‘shma so‘z yasash usuli), 파생어 (qo‘shimchalar orqali so‘z yasash usuli), 축약어 (qisqartirish orqali so‘z yasash usuli), 한자어 (xitoycha morfemalar orqali so‘z yasash usuli), 의성어/의태어 (ovoz yoki ko‘rinishga taqlid orqali so‘z yasash usuli) va 어휘적 변형 (leksik yasalish usuli).

Qo‘shma so‘z yasash usuli ham o‘z navbatida beshga bo‘linadi: 명사 합성어 (otli qo‘shma so‘z), 동사 합성어 (fe‘lli qo‘shma so‘z), 부사 합성어 (ravishli qo‘shma so‘z), 형용사 합성어 (sifatli qo‘shma so‘z) va 관형사 합성어 (ot aniqlovchili qo‘shma so‘z). Otli qo‘shma so‘zga misol qilib 손- qo‘l va 목- bo‘yin so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan 손목-bilak so‘zini, 눈-ko‘z va 물-suv so‘zlari qo‘shilishidan hosil bo‘lgan 눈물- ko‘zyosh so‘zini, 첫-birinchi va 사랑-sevgi so‘zidan hosil bo‘lgan 첫사랑-birinchi sevgi so‘zi kabilarni keltirishimiz mumkin. Fe‘lli qo‘shma so‘zga misol tariqasida 날다-uchmoq va 가다-ketmoq so‘zlari qo‘shilishidan yasalgan 날아가다-uchib ketmoq, 뛰다-yugurmoq va 가다-ketmoq so‘zlari birikishidan hosil bo‘lgan 뛰어가다-yugurib ketmoq, 도움-yordam va 주다-bermoq so‘zlaridan hosil bo‘lgan 도와주다-yordam bermoq kabi so‘zlarni

keltirishimiz mumkin. Ravishli qo'shma so'zga 제-o'zi va 각각-har bir so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan 제각각-har kim o'ziga(o'zicha) so'zi, 하루-bir kun va 바빠-juda tez so'zlari birikuvidan hosil bo'lgan 하루바빠-imkon boricha tezroq, 가끔-ba'zan va 가다-ketmoq so'zlaridan yasalgan 가끔가다-kamdan-kam kabilar kiradi. Sifatli qo'shma so'zga misol qilib 값-narx va 싸다-arzon so'zlaridan 값싸다-arzon narxli, 꿈-tush va 같다-o'xshamoq so'zlaridan hosil bo'lgan 꿈같다-tushga o'xshash, 높다-baland va 푸르다-moviy so'zlaridan 높푸르다-baland va moviy (asosan tog' va osmon uchun qo'llaniladi) kabi so'zlarni olishimiz mumkin. Ot aniqlovchili qo'shma so'zga misol qilib 큰-katta va 집-uy so'zi birikishidan hosil bo'lgan 큰집-ota-ona yoki oiladagi katta o'g'il yashaydigan uy so'zini, 작다-kichkina va 아버지-ota so'zlaridan 작은아버지-kichkina amaki so'zini, 보다-ko'rmoq va 일-ish so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan 볼일 bajarilishi kerak bo'lgan ish so'zlarini keltirishimiz mumkin.

So'z asosi (어근)ga 접두사 (old qo'shimchalar) yoki 접미사 (orqa qo'shimchalar) qo'shish yordamida yangi so'z yasash usuliga 파생어 deyiladi. Old qo'shimcha vositasida yasalgan yasama so'z 접두파생어, orqa qo'shimcha yordamida yasalgan qo'shma so'z 접미파생어 deb ataladi. 접두파생어ga misol qilib 풋사랑 (풋-pishmagan, tajribasiz va 사랑-sevgi)-ilk sevgi, 군말 (군-ortiqcha va 말-so'z/gap)-ortiqcha gap so'zlarini olishimiz mumkin. 접미파생어 misol tariqasida esa 사람답다 (사람-odam va -답다-kabi)-odamga xos/odamdek so'zini, 먹이 (먹다-yemoq so'zi bilan 이-vosita)-ozuqa so'zini keltirishimiz mumkin.

So'zlarni qisqartirish yordamida yangi so'z hosil qilish usuli 축약어 deb yuritiladi. 축약어 uzun yoki murakkab so'zlarni qisqartirish orqali muloqot jarayonini osonroq va qulayroq qilish imkonini beradi. Bunday so'zlarga misol qilib 넷 (to'liq shakli 인터넷-internet), 대학 (to'liq shakli 대학교-universitet), 수꼭 (to'liq shakli 수도꼭지-suvni o'chirish krani), 차 (to'liq shakli 자동차-avtomobil) kabi so'zlarni aytishimiz mumkin.

Xitoycha morfemalardan foydalanish yordamida yangi so'z hosil qilish usuliga 한자어 deyiladi. Bunday usulda yasalgan so'zlarga misol qilib 학교- maktab (hak)

- o'rganish va 校 (gyo) - maktab), 경제-iqtisodiyot (經 (kyong) -boshqarish va 濟 (je) - yordam), 의사 – shifokor (醫 (ui) -tibbiyot va 師 (sa) -ustoz) so'zlarini olishimiz mumkin.

Ma'lum bir hayvonning yoki tabiat hodisasining ovozi, harakati yoki ko'rinishiga taqlid qilib yasalgan so'zlar 의성어 yoki 의태어 deyiladi. Masalan: 멍 멍 (kuchukning vovullashi), 졸졸 (suv oqqanda hosil bo'luvchi tovush), 반짝반짝 (biror narsadan nur taralishiga taqlid, o'zbek tilidagi "yalt-yalt" kabi), 똑똑( eshik taqillaganda chiquvchi tovush) kabilar bunga misol bo'ladi.

Avvaldan mavjud bo'lgan so'zning ma'nosini kengaytirish yoki o'zgartirish vositasida yangi so'z yasash usuli 어휘적 변형 deyiladi. Bunday usulda hosil qilingan so'zlarga 보다 (ko'rmoq) so'zidan hosil bo'lgan 보이다 (ko'rinmoq), 높다 (baland bo'lmoq) so'zidan yasalgan 높이다 (balandlatmoq) kabi so'zlar kiradi.

O'zbek tilida yangi so'z yasash asosan morfologik va sintaktik usullar orqali amalga oshirilsa, ingliz tilida so'z asosiga old qo'shimcha qo'shish (prefix), orqa qo'shimcha qo'shish (suffix), bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tish (conversion) va qo'shma so'z yaratish (compounding) usullari vositasida, koreys tilida esa 합성어 (qo'shma so'z yasash usuli), 파생어 (qo'shimchalar orqali so'z yasash usuli), 축약어 (qisqartirish orqali so'z yasash usuli), 한자어 (xitoycha morfemalar orqali so'z yasash usuli), 의성어/의태어 (ovoz yoki ko'rinishga taqlid orqali so'z yasash usuli) va 어휘적 변형 (leksik yasalish usuli) usullari yordamida amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi prefix va suffix, koreys tilidagi 파생어 o'zbek tilidagi morfologik usulga mos tushadi, ya'ni bu usullarning nomlanishi turli xil bo'lsada barchasida yangi so'z qo'shimcha qo'shish orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilidagi compounding, koreys tilidagi 합성어, o'zbek tilidagi sintaktik usulga to'g'ri keladi. Ularning barchasida yangi so'z ikki yoki undan ortiq so'zning birikuvidan shakllanadi. Ingliz tilidagi conversion usuli o'zbek tilidagi semantik usul bilan aynan bir xil bo'lib, koreys tilidagi 어휘적 변형 usulning esa yuqoridagi usullar bilan o'xshash jihatlari mavjud. O'zbek tilidagi abbrevatsiya usuli va koreys tilidagi 축약어 ham ko'plab jihatlarga ko'ra juda o'xshash. Koreys tilidagi yangi so'z yasashning 한자어(xitoycha morfemalar orqali so'z yasash) usuli ingliz va o'zbek tillarida mutloq mavjud emasligining guvohi bo'lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. —T.: Durdona.
2. Amonov U. Ona tili(Morfologiya). —Buxoro: Durdona.
3. G'ulomov A.G', Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. —T.: O'qituvchi.
4. Štekaur P., Lieber R. Handbook of word-formation. // – Netherlands: Springer, 2005.
5. Kaufman L., Straus J. The blue book of grammar and punctuation. // –San Francisco: Jossey-Bass, 2021.
6. 황화상. 국어 조사의 문법. – 서울: 지식과 교양, 2012.
7. 종결. 한국어와 중국어의 합성어 구조 연구. –서울: 역락, 2014.
8. 황화상. 국어 조사의 문법. – 서울: 지식과 교양, 2012.
9. 정미혜, 장은경, 최선미, 박영주. 한국어 속의 한자어. – 서울: 역락, 2021.
10. 채완. 한국어의 의성어와 의태어. – 서울: 서울대학교출판부, 2003.
11. 박혜숙. 줄임말 대소동. – 서울: 키다리, 2013.